

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**IJTIMOY VA ISHLAB CHIQUARISH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH
BO‘YICHA DAVLAT DASTURLARINI SHAKLLANTIRISH VA AMALGA OSHIRISH
JARAYONLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING QO‘SHIMCHA CHORALARI
TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari hamda budjet tizimi budjetlari hisobidan moliyalashtiriladigan dasturlarni o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli amalga oshirish, sohada samarali nazorat mexanizmlari va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, loyihalar ishtirokchilari va nazorat qiluvchi idoralarning mas’uliyatini yanada oshirish maqsadida:

1. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining markaziy apparati tuzilmasida yuridik shaxs tashkil etmagan holda, vazirlikning tasdiqlangan umumiy shtat birliklari soni doirasida hamda shartnoma asosida mutaxassis-ekspertlarni jalb qilish hisobiga O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari hamda budjet tizimi budjetlari hisobidan moliyalashtiriladigan dasturlarga (keyingi o‘rinlarda — davlat dasturlari) muvofiq qiymati 10 milliard so‘mdan yuqori bo‘lgan obyektlarni (keyingi o‘rinlarda — alohida obyektlar) qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlarini ko‘rib chiqish vakolatiga ega loyiha ofisi (keyingi o‘rinlarda — Loyiha ofisi) tashkil etilsin hamda quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilansin:

alohida obyektlarning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun tayyorlangan loyihalash topshiriqlarini ko‘rib chiqish va kelishish;

alohida obyektlarning loyiha-smeta hujjatlarini ularning samaradorligi va asoslanganligi, funkcionalligi ta‘minlanganligi, shuningdek, kelgusida ularni ekspluatatsiya qilishda qulaylik va tejamkorlikka rioya etilganligi jihatidan o‘rganish;

alohida obyektlarning loyiha-smeta hujjatlarida qo‘llanilayotgan narxlarni chuqur tahlil qilib, qurilish materiallari va ishlarning (xizmatlarning) qiymati sun‘iy ravishda qimmatlashishining oldini olish;

loyiha-smeta hujjatlarini ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra ularning samaradorligi va asoslanganligi, ularda shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga rioya etilganligi, alohida obyektlarning funkcionalligi va ekspluatatsiya uchun qulayligi hamda smeta qiymatining maqbulligi yuzasidan tavsiya berish;

ijtimoiy soha obyektlarining namunaviy loyiha hujjatlari ishlab chiqilishini ta‘minlash.

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi o‘n kun muddatda Loyiha ofisi to‘g‘risidagi nizom va uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilangan tartibda tasdiqlasin.

2. Belgilansinki:

2024-yilda Loyiha ofisi tomonidan davlat dasturlariga qo‘shimcha kiritilayotgan, qiymati 10 milliard so‘mdan yuqori bo‘lgan alohida obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlari ko‘rib chiqiladi;

Loyiha ofisi tomonidan loyihalash topshiriqlarini kelishish, loyiha-smeta hujjatlarini ko‘rib chiqish hamda ular bo‘yicha tavsiya berish “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi orqali amalga oshiriladi;

Loyiha ofisi tomonidan loyihalash topshiriqlarini ko‘rib chiqish va kelishish uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida hamda loyiha-smeta hujjatlarini ko‘rib chiqish va ekspertizadan o‘tkazishga tavsiya berish uchun obyektlar smeta qiymatining 0,005 foizi miqdorida to‘lovlar undiriladi va buyurtmachi xarajatlarida aks ettiriladi;

Loyiha ofisi bilan kelishilmagan alohida obyektlarning loyihalash topshiriqlarini tasdiqlashga yo‘l qo‘yilmaydi;

Loyiha ofisi tomonidan o'ziga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda, shu jumladan loyiha-smeta hujjatlarini ko'rib chiqishda zarur hollarda, loyiha institutlari, ekspertiza organlari va boshqa tashkilotlarning malakali mutaxassislari jalb qilinishi mumkin;

alohida obyektlarning loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha Loyiha ofisining tavsiyasi bo'lmagan taqdirda, buyurtmachilar tomonidan ularni ekspertizaga taqdim etishga yo'l qo'yilmaydi;

Loyiha ofisiga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun yuqori malakali xorijiy va mahalliy mutaxassislar, ekspert, konsultant va maslahatchilarni to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida jalb etish huquqi beriladi;

Loyiha ofisi mansabdor shaxslari loyihalash topshiriqlarini ko'rib chiqish va kelishish hamda ekspertizadan o'tkazishga tavsiya berishda o'zlariga yuklangan vazifalarning o'z vaqtida va samarali bajarilishiga javobgar hisoblanadi.

3. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq davlat dasturlari doirasida:

a) 2025-yil 1-yanvardan boshlab loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish va obyektlarni foydalanishga qabul qilishda qurilish xarajatlarni baholashning "hajm" uslubiga (hajm va sifat ko'rsatkichlarini hisobga olishga) o'tiladi;

b) 2024-yil 1-iyuldan boshlab obyektlarning smeta qiymati "Qurilish resurslari milliy klassifikatori" elektron platformasi ma'lumotlari asosida shakllantiriladi;

v) 2024-yil 1-oktabrdan boshlab qurilishi tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilish jarayoni raqamlashtirilgan holda, "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimining "Qurilishda davlat nazorati" elektron platformasi orqali rasmiylashtiriladi;

g) loyihalashtirish topshirig'i va unga ilova etiladigan hujjatlar to'liq ishlab chiqilmagan obyektlar uchun loyiha-qidiruv tashkilotlarini aniqlash bo'yicha tender savdolarini belgilash taqiqlanadi;

d) "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimiga:

buyurtmachi tomonidan qurilish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash obyektlariga tegishli bo'lgan birlamchi-ruxsat beruvchi hujjatlar, ekspertiza xulosalari va tender hujjatlari hamda tegishli davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomalar majburiy tartibda joylashtiriladi;

qurilish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash shartnomalari bilan birga obyektlarda ishlarni bajarish va moliyalashtirish grafiklari hamda ularning haqiqatda moliyalashtirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar elektron shaklda yuboriladi;

puadrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan ish turlari, hajmlari va qiymatlari to'g'risidagi ma'lumotlar soliq organlariga taqdim etilgan elektron hisobvaraqq-fakturalar asosida shakllantirilgan holda yuboriladi;

e) "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimida:

2024-yil 1-iyuldan boshlab avtomobil yo'llari va yo'l inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlashda qiymati 10 milliard so'mdan ortiq bo'lgan loyihalar bo'yicha jalb qilinadigan yordamchi puadrat tashkilotlari ro'yxatga olinadi;

tender savdolari oferentlari tomonidan takliflar to'liq raqamlashtirilgan holda kiritiladi;

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi va Transport nazorati inspeksiyasi tomonidan har oyda kamida bir marotaba davlat dasturlariga kiritilgan obyektlardagi qurilish jarayonining joriy holati bo'yicha fotosuratlar joylashtirib boriladi.

4. Davlat dasturlari doirasida Bosh prokuratura va Hisob palatasi tomonidan amalga oshiriladigan quyidagi nazorat tartibi joriy etilsin:

a) "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi orqali:

qurilish obyektlari bo'yicha tegishli hokimliklar tomonidan yer uchastkalarini ajratishga oid hujjatlar hamda tegishli tashkilotlar tomonidan loyihalashtirishga doir birlamchi ruxsat beruvchi hujjatlar o'z vaqtida rasmiylashtirilishi;

qurilish obyektlari loyiha-smeta hujjatlarining belgilangan muddatlarda ekspertizadan o'tkazilishi;

loyiha va puadrat tashkilotlarini belgilash bo'yicha tender savdolari qonunchilikka muvofiq tashkil etilishi va o'tkazilishi;

buyurtmachilar va g'aznachilik bo'linmalari tomonidan obyektlar o'z vaqtida moliyalashtirilishi, pudrat tashkilotlari tomonidan belgilangan muddatlarda qurilish-montaj ishlari bajarilishi hamda obyektlar foydalanishga topshirilishi ustidan tizimli nazorat o'rnatiladi;

b) joyiga chiqqan holda ijrosi kechikayotgan loyihalar va muammoli obyektlarda kamchiliklar o'rganiladi.

Bunda mazkur bandeda nazarda tutilgan monitoring va nazorat tadbirlari natijalariga ko'ra:

qurilish-montaj ishlarini to'xtatmasdan turib, bartaraf etib bo'lmaydigan shaharsozlik, davlat xaridlari va budjet to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlari aniqlangan obyektlar bo'yicha kamchiliklar bartaraf etilgunga qadar moliyalashtirishni qonunchilikda belgilangan tartibda vaqtincha to'xtatish yuzasidan tegishli buyurtmachilar va G'aznachilik xizmati qo'mitasiga taqdimnoma kiritiladi;

loyiha va pudrat tashkilotlari tomonidan o'z majburiyatlari lozim darajada bajarilmagan hollar aniqlanganda, ularning elektron tender savdolarida ishtirokini cheklash yuzasidan Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligiga ko'rsatma kiritiladi.

5. Qurilish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash obyektlarini moliyalashtirishning quyidagi tartibi belgilansin:

a) g'aznachilik organlari "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimiga qurilish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash obyektlariga tegishli bo'lgan birlamchi ruxsat beruvchi hujjatlar, ekspertiza xulosalari va tender hujjatlari to'liq joylashtirilganligi ko'rib chiqilgandan so'ng tegishli davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomalarni uch ish kuni ichida ro'yxatga oladi;

b) davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomalar g'aznachilik organlarida ro'yxatga olingandan so'ng ular bo'yicha avans to'lovlari inson omilisiz avtomatik tarzda amalga oshiriladi;

v) foydalanishga topshirilgan obyektning kafolat summasi pudrat tashkilotining ixtiyoriga ko'ra:

kafolat muddati davomida — obyektning kafolat muddatida sug'urtalash yoki tijorat banklari tomonidan kafolatlash orqali to'lab beriladi;

kafolat muddati tugagandan so'ng — foydalanuvchi tashkilotning asoslantirilgan e'tirozi bo'lmagan taqdirda, pudrat tashkilotining hisobvarag'iga g'aznachilik tizimidan inson omilisiz avtomatik ravishda o'tkaziladi. Bunda, foydalanuvchi tashkilot xulosasi elektron imzo bilan tasdiqlangan holda Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimiga yuboriladi.

6. Davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan qurilish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash ishlari bo'yicha texnik nazorat xizmatini ko'rsatishga quyidagi obyektlarda outsorsing asosida tadbirkorlik subyektlarini jalb qilishga ruxsat berilsin:

2025-yil 1-yanvardan boshlab — tajriba tariqasida qurilish (ta'mirlash) ishlari yangidan boshlanadigan maktab, maktabgacha ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarida;

2026-yil 1-yanvardan boshlab — boshqa qurilish (ta'mirlash) obyektlarida (davlat sirlari bilan bog'liq bo'lgan obyektlar bundan mustasno).

7. Belgilab qo'yilsinki, 2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash uchun ajratiladigan mablag'larning 50 foizi jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan loyihalarga yo'naltiriladi.

Bunda:

aholining demografik holati va ehtiyoji inobatga olingan holda, hududlar kesimida loyihalar ro'yxati manfaatdor vazirliklar va idoralar tomonidan shakllantiriladi hamda "Ochiq budjet" axborot portaliga joylashtiriladi;

jamoatchilik tomonidan eng ko'p ovoz to'plagan loyihalar g'olib deb topiladi hamda har bir hudud uchun taqsimlangan mablag'lar doirasida O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi loyahasiga kiritiladi.

8. Vazirlar Mahkamasi 2024-yil yakuniga qadar sohalar kesimida binolarni saqlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish uchun moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni hisoblash hamda ularning hisobini yuritish tartibini belgilovchi shaharsozlik normalari va qoidalari ishlab chiqilishini ta'minlasin.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi ishlab chiqilgan shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan 2025-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetini shakllantirishda binolarni saqlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlar uchun zarur mablag‘larni nazarda tutsin.

9. Quyidagilar:

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining axborot tizimlariga vazirlik va idoralarning o‘zaro integratsiya qilingan axborot tizimlari orqali taqdim etiladigan qo‘shimcha ma‘lumotlar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

Qurilish loyihalarini amalga oshirish, boshqarish va nazorat qilish samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. Iqtisodiyot va moliya vazirligi:

uch oy muddatda texnik nazorat xizmatini ko‘rsatishga outsorsing asosida tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish, texnik nazorat xizmatini ko‘rsatuvchi tashkilotlar faoliyatini baholab, ularning reytingini “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimida e‘lon qilib borish tartibini;

2024-yil 1-avgustga qadar foydalanishga topshirilgan obyektlarni kafolat muddati davomida sug‘urtalash yoki tijorat banklari tomonidan kafolatlash tartibini belgilash yuzasidan tegishli hujjat loyihasini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritin.

11. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi:

Bosh prokuratura bilan birgalikda 2024-yil 1-iyunga qadar qurilishi tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilish jarayonini raqamlashtirish to‘g‘risidagi nizom loyihasini;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risidagi takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 3-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritilsin.

13. Mazkur qarorda belgilangan chora-tadbirlar ijrosini samarali tashkil qilishga mas‘ul etib O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosarlari A.J. Ramatov va J.A. Kuchkarov belgilansin.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori N.T. Yo‘ldoshev va Hisob palatasi raisi A.M. Boboyev ushbu qarorda belgilangan vazifalar o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Qaror ijrosini ta‘minlash bo‘yicha mas‘ul idoralar va mahalliy hokimliklar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2024-yil 29-aprel,
PQ-165-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-apreldagi PQ-165-son qaroriga
1-ILOVA

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining axborot tizimlariga vazirlik va idoralarning o‘zaro integratsiya qilingan axborot tizimlari orqali taqdim etiladigan qo‘shimcha ma‘lumotlar

RO‘YXATI

T/r	Vazirlik va idoralar nomi	Taqdim etiladigan ma‘lumotlar	Taqdim etish muddati
I.	“Qurilish resurslari milliy klassifikatori” elektron platformasiga joylab boriladigan ma‘lumotlar		

1.	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	Davlat xaridlari sohasidagi qurilish resurslariga oid ma'lumotlar.	Doimiy
2.	Soliq qo'mitasi	Mahsulotlarning yagona elektron milliy katalogidagi qurilish resurslariga oid (mahsulot nomi, o'lchov birligi, narxi) ma'lumotlar.	Doimiy
3.	Statistika agentligi	Sanoat mahsulotlarining narxlari ko'rsatkichlari.	Har oyda
4.	O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi	Qurilish materiallari bo'yicha standartlar va muvofiqlik sertifikatlari asosida ularning texnik parametrlari ko'rsatkichlari.	Doimiy
5.	Bojxona qo'mitasi	Respublika hududiga import qilingan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va jihozlari bo'yicha narx ko'rsatkichlari.	Har oyda
II. "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimiga joylashtirib boriladigan ma'lumotlar			
6.	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	Qurilish va ta'mirlash loyihalari, ularga ajratilgan mablag'lar hamda moliyalashtirish bo'yicha ma'lumotlar.	Doimiy
7.	Soliq qo'mitasi	1. Budjet tizimi budjetlari hisobidan moliyalashtiriladigan dasturlar doirasida bajarilgan qurilish-montaj ishlarini tasdiqlovchi elektron hisobvara-q-fakturalar va ularga ilovalar. 2. Loyiha va pudrat tashkilotlarining jismoniy shaxslarning daromad solig'i hisobotlaridagi ishchi xodimlar haqidagi ma'lumotlar.	Doimiy
8.	Markaziy bank orqali tijorat banklari	Xizmat ko'rsatuvchi bankdan 2-son kartoteka qarzdorligi va "Kredit-axborot tahliliy markazi" kredit byurosidan muddati o'tgan kredit qarzdorligi mavjud yoki mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotlar.	Doimiy
9.	Kadastr agentligi	Yangi qurilish obyektlari bo'yicha tegishli hokimliklar tomonidan yer uchastkalarini ajratishga oid hujjatlarning o'z vaqtida rasmiylashtirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar.	Doimiy
10.	Ichki ishlar vazirligi	Shaxsning ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilganligi va sudlanganligi to'g'risidagi ma'lumot.	Doimiy

Izoh.

1. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining axborot tizimlariga uzatiladigan axborot va ma'lumotlarning o'z muddatida, to'g'ri va to'liq taqdim etilishiga tizimga integratsiya qilingan tegishli vazirliklar va idoralarning birinchi rahbarlari shaxsan mas'ul hisoblanadi.

2. Ushbu ro'yxatdagi ma'lumotlar beg'araz taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-apreldagi PQ-165-son qaroriga
2-ILOVA

Qurilish loyihalarini amalga oshirish, boshqarish va nazorat qilish samaradorligini yanada oshirish bo'yicha

"YO'L XARITASI"

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
-----	----------------------	---------------------------	--------------	-------------------

1.	Qurilish-pudrat tashkilotlari hisobvaraqa-fakturalarining yangi shaklini to'ldirish va hisobini yuritish bo'yicha seminar-treninglar tashkil etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil may	Soliq qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi
2.	Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasining qurilish obyektlarida nazorat o'lchovini amalga oshirish boshqarmasi malakali mutaxassislar bilan to'ldirilishini ta'minlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2024-yil may	Bosh prokuratura, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi
3.	"Shaffof qurilish" tizimini Hisob palatasining "Masofaviy audit" avtomatlashtirilgan axborot tizimiga integratsiya qilish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil may	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Hisob palatasi
4.	"Shaffof qurilish" tizimi orqali Davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladigan dasturlarni amalga oshirish jarayonlari raqamlashtirish bilan to'liq qamrab olinganligi yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga xulosa kiritish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil may	Raqamli texnologiyalar vazirligi, Hisob palatasi, Bosh prokuratura
5.	Raqamli texnologiyalar vazirligi xulosasiga asosan "Shaffof qurilish" tizimini takomillashtirish choralarini ko'rish.	Amaliy chora-tadbirlar	Zaruratga ko'ra	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Hisob palatasi, Bosh prokuratura, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, "Kiberxavfsizlik markazi" DUK
	Bunda, "Shaffof qurilish" tizimini doimiy takomillashtirish bo'yicha ishchi guruh tashkil etish.		2024-yil may	
6.	"Shaffof qurilish" tizimida "Davlat dasturlari ijrosi monitoringi" platformasini ishga tushirish. Bunda, Bosh prokuratura va Hisob palatasining ushbu platformaga kirish imkoniyatini yaratish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil iyun	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi
7.	Obyektlarning smeta qiymatini shakllantirish bo'yicha "Qurilish resurslari milliy klassifikatori" elektron platformasini to'liq ishga tushirish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil iyun	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Soliq qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Statistika agentligi, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Bojxona qo'mitasi

8.	Texnik nazorat xizmatini ko'rsatishga outsorsing asosida tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish tartibini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Vazirlar Mahkaması qarori loyihasi	2024-yil iyun	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi
9.	Qurilishi tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilish jarayonini raqamlashtirish to'g'risidagi nizom loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Vazirlar Mahkaması qarori loyihasi	2024-yil iyun	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Bosh prokuratura, Iqtisodiyot va moliya vazirligi
10.	Davlat budjeti mablag'lari hisobidan bajariladigan qurilish va ta'mirlash ishlarida loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlashdan boshlab obyektlarni qabul qilib olishgacha bo'lgan jarayonlarni hajm va sifat ko'rsatkichlari ("hajm" uslubi) asosida amalga oshirish tartibini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Vazirlar Mahkaması qarori loyihasi	2024-yil iyul	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi
11.	"Davlat dasturlari loyihalarining amalga oshirilishini monitoring qilish va manzilli ro'yxatlarni kelishish" avtomatlashtirilgan elektron platformasini yuritish tartibini ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash. Bunda, Bosh prokuratura va Hisob palatasining ushbu platformaga kirish imkoniyatini yaratish.	Idoralararo hujjat loyihasi	2024-yil iyul	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Hisob palatasi, Bosh prokuratura
12.	Foydalanishga topshirilgan obyektlarni kafolat muddati davomida sug'urtalash yoki tijorat banklari tomonidan kafolatlash hamda kafolat summalarini muddatidan oldin to'lab berish tartibini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Vazirlar Mahkaması qarori loyihasi	2024-yil avgust	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Markaziy bank
13.	Soliq organlarining axborot tizimidagi pudrat tashkilotlari va ulardagi ishchilarga soliq hamda boshqa to'lovlar hisoblanishiga oid ma'lumotlarni Yagona milliy mehnat tizimiga integratsiya qilish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil avgust	Soliq qo'mitasi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi
14.	Byudjet tizimi budjetlari hisobidan amalga oshirilgan loyihalar bo'yicha erishilgan miqdor va sifat ko'rsatkichlarini ichki audit xizmatlari tomonidan baholash tartibini ishlab chiqish.	Idoralararo hujjat loyihasi	2024-yil avgust	Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi
15.	Budjet tizimi budjetlari hamda davlat tashqi qarzi hisobidan moliyalashtiriladigan qurilish-montaj ishlari, shu jumladan, qiymati 100 mlrd so'mdan yuqori bo'lgan loyihalar bo'yicha ular yakunlangandan so'ng audit o'tkazish tartibini ishlab chiqish.	Idoralararo hujjat loyihasi	2024-yil avgust	Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi

16.	Binolarni saqlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish uchun moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni hisoblash va ularning hisobini yuritish tartibini belgilovchi shaharsozlik normalari va qoidalarini ishlab chiqish.	Shaharsozlik normalari va qoidalarini	2024-yil dekabr	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Energetika vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi
17.	Ijtimoiy soha obyektlarini loyihalashtirish tarmoq normalarini yangilash.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2024-yil dekabr	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi
18.	Davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan qurilish va rekonstruksiya qilish loyihalari bo'yicha ijrosi kechikayotgan va muammoli obyektlarda joyiga chiqqan holda kamchiliklarni o'rganish.	Amaliy chora-tadbirlar	Doimiy	Bosh prokuratura, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi, Hisob palatasi, Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-apreldagi PQ-165-son qaroriga
3-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimcha

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-dekabrda "Hududlarda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4929-son qarorida:

a) 2-bandning "a" kichik bandi **birinchi xatboshisidagi** "va kichik sanoat zonalari" so'zlari "zonalar" so'zi bilan almashtirilsin;

b) **7-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"7. Iqtisodiyot va moliya vazirligi har yili Davlat budjetining asosiy parametrlarini shakllantirishda maxsus iqtisodiy zonalar hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta'minlash ishlari uchun Davlat budjetidan O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari doirasida mablag'lar ajratilishini nazarda tutsin".

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi "2022 — 2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-98-son qarorining **3-bandida**:

a) **ikkinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Vazirlar Mahkamasi Rayosati tomonidan Dasturning asosiy parametrlariga tasdiqlangan loyihaoldi va (yoki) loyiha hujjatlari hamda moliyalashtirish manbalari mavjud bo'lgan qo'shimcha loyihalar (obyektlar) kiritilishini, amalga oshirilmagan loyihalar (obyektlar) chiqarib tashlanishini, shuningdek, kapital qo'yilmalarning buyurtmachilar (tashabbuskorlar) o'rtasida qayta taqsimlanishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritilishi mumkin";

b) **uchinchi xatboshi** chiqarib tashlansin;

v) **to'rtinchi** va **beshinch xatboshilar** tegishincha uchinchi va to'rtinchi xatboshilar deb hisoblansin;

g) **uchinchi** va **to'rtinchi xatboshilardagi** "Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan Moliya vazirligi bilan birgalikda" so'zlari "Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan" so'zlari bilan almashtirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi “Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-139-son qarorining **3-bandi** quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Bunda, Vazirlar Mahkamasi Rayosati tomonidan Dasturning asosiy parametrlariga tasdiqlangan loyihaoldi va (yoki) loyiha hujjatlariga muvofiq samarasiz loyihalarni chiqarib tashlash va (yoki) boshqa istiqbolli loyihalarni kiritishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va (yoki) qo‘shimchalar kiritilishi mumkin”.

(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2024-y., 07/24/165/0311-son)